

IJTIMOY PROFILAKTIKANING KRIMINOGEN VAZIYATGA TA'SIRIGA OID NAZARIYALAR VA OLIMLARNING FIKRLARI



Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy profilaktikaning jinoyatchilikka ta'siri, uning kriminogen vaziyatni bartaraf etishdagi ahamiyati hamda turli nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. "Ijtimoiy profilaktika" tushunchasining ilmiy-amaliy mohiyati ochib berilgan hamda jahon va mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar qiyosiy tahlil qilingan. Shu bilan birga, jamiyatdagi kriminogen omillarni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish borasida nazariy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy profilaktika, kriminogen vaziyat, jinoyatchilik, nazariy yondashuvlar, jamiyat xavfsizligi, profilaktik choralar, sotsiologiya, huquqshunoslik.

ТЕОРИИ И МНЕНИЯ УЧЕНЫХ О ВЛИЯНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ НА КРИМИНОГЕННУЮ СИТУАЦИЮ

Аннотация. В статье рассматривается влияние социальной профилактики на уровень преступности и её роль в устранении криминогенных ситуаций. Автор раскрывает научно-практическую сущность понятия социальной профилактики, анализирует теоретические подходы, также мнения отечественных и зарубежных учёных. Особое внимание уделено эффективности профилактических мер, направленных на снижение криминогенных факторов в обществе.

Ключевые слова: социальная профилактика, криминогенная ситуация, преступность, теоретические подходы, безопасность общества, профилактические меры, социология, юриспруденция.

THEORIES AND OPINIONS OF SCIENTISTS ON THE IMPACT OF SOCIAL PREVENTION ON THE CRIMINOGENIC SITUATION

Abstract. This article examines the impact of social prevention on crime rates and its role in addressing criminogenic situations. The author explores the scientific and practical essence of the concept of social prevention, analyzing various theoretical approaches and the views of both domestic and international scholars. Special attention is given to the effectiveness of preventive measures aimed at reducing criminogenic factors in society.

Keywords: social prevention, criminogenic situation, crime, theoretical approaches, public safety, preventive measures, sociology, jurisprudence.

Ijtimoiy hayotda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish jamiyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy profilaktika choralari muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy profilaktika – jamiyatda jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tizimli va muvofiq-lashtirilgan faoliyat. Jamiyatda jinoyatlarning paydo bo'lishi, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va madaniy omillarga bog'liq. Kriminogen vaziyatlar esa bu omillarning jamlangan natijasi, ular jinoyatchilikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy profilaktikaning asosiy vazifasi jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash va jinoyatga yo'naltiruvchi omillarni kamaytirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa, ijtimoiy profilaktikaga oid chora-tadbirlar huquqiy jihatdan yetarlicha mustahkamlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son qarori ijtimoiy profilaktika faoliyatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qarorda profilaktika subyektlari (mahalla, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, davlat organlari) va ularning vazifalari aniq ko'rsatilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali jinoyatchilikning oldini olish sohasida qator davlat dasturlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (2021-yil 29 noyabrdagi PF-27-son) jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta'minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etishda yangi yondashuvlarni belgilab berdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ijtimoiy profilaktikaning samaradorligini ta'minlashda qonunchilik asoslarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi kriminogen vaziyat jinoyatchilikning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yig'indisidir. Ushbu vaziyatga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p va xilma-xil bo'lib, ular orasida ijtimoiy profilaktikaning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Jinoyatchilikning oldini olish faqat jazo va jazolash vositalari orqali emas, balki jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali ham amalga oshirilishi kerak. Bu borada ijtimoiy profilaktika jamiyat

xavfsizligini ta'minlashda eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy profilaktika va kriminogen vaziyatga bag'ishlangan tadqiqotlar, fikr yuritilgan ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy va iqtisodiy omillarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratiladi. Bir nechta olimlar jinoyatchilikni ijtimoiy tuzumning zaifliklari va notekisliklari bilan bog'laydilar. Emil Dyurkgeymning ijtimoiy integratsiya nazariyasi bo'yicha, ijtimoiy bo'shliqlar va insonlar o'rtasidagi aloqalarning zaifligi jinoyatlarning tarqalishiga olib keladi. Bundan tashqari, ijtimoiy profilaktikaning samaradorligi haqidagi so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, profilaktik tadbirlar, ayniqsa, yoshlarni jinoyatchilikdan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar ijtimoiy profilaktikaning samaradorligini turli jihatdan ko'rsatib beradi. Masalan, Emil Dyurkgeym o'zining "anomiya" nazariyasida [4; 399 b.] jamiyatda qonun va normalar zaiflashib, axloqiy qadriyatlarining inkor etilishi natijasida jinoyatchilik avj olishini ta'kidlagan.

Ijtimoiy nazariyotchilar orasida mashhur bo'lgan Robert Merton "Sotsial struktura va Anomiya" (1938) asarida ijtimoiy tizimning notekisligi, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarga teng bo'lmagan kirish imkoniyatlari odamlarni jinoyatga yo'naltirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Merton "anomiya" nazariyasida jinoyatning ortib ketishini jamiyatdagi ijtimoiy nazoratning zaiflashishi bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy profilaktika jamiyatda jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan muhim vosita bo'lishi mumkin [5; 299 b.]. Mertonning ijtimoiy profilaktika haqidagi fikrlari jamiyatda ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar asosida yangi usullarni ishlab chiqish zaruratini ta'kidlaydi. U jamiyatda ijtimoiy profilaktika yetarli darajada samarali bo'lishi uchun quyidagi yondashuvlarni taklif etadi: Ijtimoiy me'yorlarni takomillashtirish zarur, ya'ni jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar har bir ijtimoiy qatlam uchun teng bo'lishi kerak. Agar me'yorlar barcha qatlamlarga mos kelmasa, bu ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va kriminogen vaziyatni yuzaga keltiradi.

Robert Merton ijtimoiy profilaktika haqidagi nazariyalarida anomiya holatlarini bartaraf etish va jinoyatchilikning oldini olish uchun ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni ta'minlash, me'yorlarni yangilash va jamiyatda teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar, jahon kriminologiyasida, ayniqsa, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash va profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, uning tadqiqotlarida, jamiyatda barcha a'zolar uchun maqsadlarga erishish imkoniyati teng bo'lmasa, ayrim guruhlar jinoiy yo'lni tanlashi mumkinligi tahlil qilinadi.

Q.R.Abdurasulova, A.G.Zakirova, I.Ismailov kabi bir guruh olimlar ijtimoiy munosabatlar odamlarning ham amaliy, ham ma'naviy hayotiy faoliyatida yuzaga kelishini aytib, u siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy va boshqa mazmunni tashkil etishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ya'ni inson jinoyat sodir etar ekan, ijtimoiy munosabatning u yoki bu elementlariga tajovuz qiladi, ularning o'zaro bog'liqligini buzadi va shu tariqa munosabat ishtirokchilarining manfaatlariga bevosita yoxud bilvosita zarar keltirishini tushuntiradilar.

Jeyms Vilson va Jorj Kelling tomonidan ilgari surilgan "Singan oyna" nazariyasida jinoyatchilik profilaktikasiga fuqarolik jamiyati va mahalliy idoralar faoliyati orqali ta'sir etish zarurligi ta'kidlanadi. Ya'ni, kichik qoidabuzarliklarga o'z vaqtida chora ko'rilmasa, bu orqali jiddiy jinoyatlar sodir etilish ehtimoli oshadi. Bu Vilson va Kelling nazariyasini yanada kengroq muhokama qiladi va uning jamiyatdagi xavfsizlikni oshirishga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. Shuningdek, jamoat joylaridagi tartibsizliklarga qarshi profilaktik yondashuvlarni qo'llash orqali jinoyatchilikni oldini olishning samaradorligini ko'rsatadi. Ularning nazariyasi Amerika jinoyatchiligini kamaytirishdagi roli va shaharlarida jinoyat darajasining pasayishiga qanday yordam berganini o'rgatishadi. Asarlarida jinoyatchilikni kamaytirishdagi yondashuvlar va ularning natijalari tahlil qilinadi [6; 29-38 b.].

Kriminologiya fanida "ijtimoiy profilaktika" tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan turlicha

talqin qilingan bo'lsa-da, belgiyalik kriminolog Adolf Prins yondashuvi [7; 47-b.] bu borada alohida ahamiyatga ega. U jinoyatga ijtimoiy hodisa sifatida qarab, jinoyatchilikning ildizlarini shaxsning ichki holatidan ko'ra, uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdan izlaydi. Prinsning ta'kidlashicha, jinoyatchilik shaxsiy tanlov emas, balki ko'pincha insonning yashash sharoitlari, tarbiyasi va atrof-muhit ta'siri bilan belgilanadi. Uning gumanistik yondashuvi jazolashdan ko'ra, ijtimoiy isloh va tarbiyaviy choralarni afzal ko'rgan. Bu tamoyillar bugungi kunda ijtimoiy profilaktikaning asosiy ustunlariga aylanib ulgurgan: jinoyat sodir bo'lishining oldini olish uchun aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash, ma'naviy tarbiyani kuchaytirish va xavfli guruhlar bilan maqsadli ishlash zarurati. Shunday qilib, Prinsning konsepsiyasi kriminogen vaziyatni ijtimoiy darajada barqarorlashtirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkinligini nazariy asoslab beradi.

Sotsiologik kriminologiya jinoyatchilikni shaxsiy xulqdan ko'ra, uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omillar bilan izohlaydi. XIX asrda A. Kettle, G. Tard va E. Dyurkgeymlar asos solgan bu yo'nalish XX asrda, ayniqsa, AQSHda, xususan Chikago universitetida rivoj topdi. Chikagodagi olimlar, jumladan Ernest Berdjess boshchiligidagi olib borilgan tadqiqotlar jinoyatchilikni urbanizatsiya, ijtimoiy notenglik va muhitdagi dezorganizatsiya bilan bog'laydi. K. Shou va uning hamkasblari aniqlaganidek, jinoyatchilikning eng yuqori darajasi kambag'allik, past turmush darajasi va ijtimoiy muhitning izdan chiqqan joylarida kuzatilgan. Aynan shu yondashuv sotsiologik kriminologiya-ning ijtimoiy profilaktika bilan uzviy bog'liqligini namoyon etadi: jinoyatchilikka qarshi kurashda shunchaki jazolash emas, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, ta'lim sifati va yashash sharoitlarini yaxshilash orqali kriminogen vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish muhim hisoblanadi. Shu sababli, sotsiologik yondashuv asosida qurilgan profilaktika mexanizmlari jinoyatchilikning ildiziga yo'naltirilgan bo'lib, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish orqali jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Piter Vuds (Peter Woods) o'zining ijtimoiy ta'lim va deviant xulq-atvor sohasidagi tadqiqotlari orqali "kriminogen zarba" (criminogenic blow) atamasini ishlab chiqqan. Ushbu nazariyaga ko'ra, shaxs jinoyat sodir etishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri – uning hayotida keskin o'zgarish yoki salbiy ijtimoiy ta'sir (zarba) ro'y berishidir. Bunday zarbalarga quyidagilar kiradi:

- maktabdagi muvaffaqiyatsizlik;
- ishsizlik;
- oilaviy ajrimlar yoki zo'ravonlik;
- jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik.

Vudsning ta'kidlashicha, bu kabi "kriminogen zarbalar" shaxsni jinoiy xulq-atvorga moyil qiladigan sharoit yaratadi. Uning nazariyasi, xususan, yoshlar o'rtasidagi deviant xulqni tushuntirishda ahamiyatli hisoblanadi. Vuds ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlarni bu holatni yumshatishda muhim rol o'ynashi kerak deb hisoblaydi [8; 139-b.]. Ushbu nazariya jinoyatchilikni faqat shaxsiy tanlov emas, balki kengroq ijtimoiy tizim doirasidagi ta'sirlar natijasi sifatida ko'rish imkonini beradi.

Jinoyatchilik sabablari faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy omillar bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy holati bilan ham uzviy bog'liqdir. U yoki bu axloqiy qadriyatlarning mavjudligi yoki yo'qligi jinoyat sodir etilishiga bevosita ta'sir qiladi. Ma'naviyat – bu faqat shaxsiy fazilatlar majmuasi emas, balki ta'lim olish, kasb egallash, madaniy saviyani oshirish, ma'naviy qadriyatlarni egallash jarayonlarining yaxlit ifodasidir. Shu bois, jinoyatchilikka qarshi kurashda tarbiyaviy ishlar va ma'naviy-ma'rifiy faoliyat muhim rol o'ynaydi.

Jinoyatchilik sabablari turli mezonlarga asoslanib tasniflanadi. Har qanday tasnif obyektlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Ilmiy tasniflar hodisalarning mohiyatiga xos bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi hamda jinoyatchilikni chuqurroq o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kriminologiya fanida jinoyatchilik sabablarini tasniflashning mantiqan izchil tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim jinoyatchilikni aniqlash, unga

qarshi kurashish va oldini olish choralari ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, bu hayotning iqtisodiy sharoitlarini, inson psixologiyasini, uning ehtiyojlari, manfaatlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini, kichik va katta ijtimoiy guruhdagi odamlarning o'zaro munosabatlari (oilalar, ishlab chiqarish munosabatlari, yaqin muhiti), qarashlari, e'tiqodlari, qadriyatlari va mo'ljallarini qamrab oladi. Binobarin, jinoyatchilikning sabablari, muammolari ijtimoiy institutlar nuqtayi nazaridan o'rganilishi lozim [3; 318 b.]. Shuning uchun olimlar jinoyatlar va jinoyatchilikning biror-bir yagona sababini – kompleks hodisa sifatida baholaydilar. Zero, jinoyatlarning kelib chiqishida ijtimoiy munosabatlarning o'rni va ahamiyati borasida har tomonlama tahlil qilish zarurligini yana ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaydilar.

Kriminologik yondashuvga ko'ra, jinoyatchilik sabablari bir-biri bilan o'zaro aloqador va bir-birining mavjudligini mustahkamlab turuvchi salbiy ijtimoiy hodisalardir. Bu hodisalarga, avvalo, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi nomutanosibliklar, huquqiy tartibga solishdagi kamchiliklar hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy holati kiradi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlardagi qarama-qarshiliklar, xo'jalik yuritish tizimidagi nomukammalliklar va resurslar taqsimotidagi adolatsizliklar jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi, ishchi kuchining ortiqchaligi, ishsizlik va maksimal foyda olishga intilish ko'pincha jinoyat sodir etilishiga zamin yaratadi. Ishsizlik esa jinoyatchilikning eng muhim sababi sifatida ko'riladi, chunki u shaxsni qonunbuzarlikka undaydigan iqtisodiy bosimni kuchaytiradi. Kriminologiya fanida ilgari sotsialistik munosabatlarning jinoyatchilikka nisbatan immunitetga ega degan qarashlar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik aniqlanishicha, aynan iqtisodiy omillar jinoyatchilikning eng muhim va barqaror sababi hisoblanadi.

Xullas, "jinoiy xulq" muayyan jinoyat sodir etish jarayoniga nisbatan kengroq va murak-

kabroq tushunchadir. Uning mexanizmini tahlil qilish – jinoyatga olib keluvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Jinoiy xatti-harakatlar bosqichma-bosqich rivojlanadi: dastlab jinoiy niyat shakllanadi, so'ngra u faol harakatlar orqali rivojlanadi, jinoyat sodir etish qarori qabul qilinadi va nihoyat, jinoyat amalga oshiriladi. Bu jarayon shaxsning ruhiy komponentlari (intellekt, emotsiya, iroda, hissiyot va boshqalar) bilan bog'liq bo'lib, ular g'ayriijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan holatda namoyon bo'ladi.

Shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi, asosan, uning individual xususiyatlari va u qaror qabul qilgan vaqtdagi ijtimoiy muhit o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir natijasidir. Shu bois, jinoyatchilikning oldini olishda samaradorlikka erishish uchun har bir jinoyatga sabab bo'lgan ichki qonuniyatlarni va mazkur jarayonning to'liq tahlilini amalga oshirish lozim.

Jinoiy xatti-harakatlarning sabablari va sharoitlarini aniqlashda shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar va u shakllangan muhit alohida o'rganilishi zarur. Shaxsdagi salbiy ma'naviy-ruhiy xususiyatlar, odatda, u yashayotgan ijtimoiy muhitda mavjud bo'lgan g'ayriijtimoiy yo'nalishlar natijasida shakllanadi. Bu xususiyatlar uzluksiz va bevosita insonlararo munosabatlar jarayonida paydo bo'ladi.

Shunday qilib, har qanday jinoyatni tahlil qilishda, uni sodir etgan shaxs bilan uni o'rab turgan muhit o'rtasidagi munosabatlar aniqlanishi lozim. Bu esa, jinoyatchilikka olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash orqali profilaktik choralarni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, jinoyatning sodir etilishi tashqaridan oddiy ko'rinsa-da, u murakkab, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan omillar tizimiga tayangan holda yuzaga keladi.

Qator xalqaro tadqiqotlar ham ijtimoiy profilaktikaning samaradorligini isbotlagan. Masalan, World Health Organization (WHO) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda aholining ijtimoiy muhofazasi, ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yuqori bo'lgan davlatlarda jinoyatchilik darajasi ancha past ekanligi qayd etilgan.

UNODC (BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi) hisobotlariga ko'ra, jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar, ayniqsa, yoshlar va mutaxassislar o'rtasida jinoiy xatti-harakatlarning kamayishiga olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ijtimoiy profilaktika jinoyatchilikka qarshi kurashda na faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki jamiyatning barcha institutlari, jumladan ta'lim, oila, ommaviy axborot vositalari va mahalla tizimi hamkorlikda ish olib borishini talab etadi. Jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni bartaraf etish uchun jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning ish bilan bandligi, ta'limga, madaniyatga va tibbiyotga bo'lgan teng imkoniyatlar yaratilishi muhim hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, jinoiy xulqning oldini olishda jamiyatdagi salbiy ijtimoiy omillarni bartaraf etish va aholi, ayniqsa, yosh avlod orasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. WHO ijtimoiy profilaktikani faqatgina huquqbuzarliklarning oldini olish emas, balki insonning sog'lom ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy kamolotiga xizmat qiladigan tizimli chora-tadbirlar majmuasi sifatida ta'riflaydi.

Tashkilotning "Violence prevention: the evidence" [9] nomli hisobotida ta'kidlanishicha, jinoiy xulqning shakllanishida oilaviy muhit, ta'lim sifatining pastligi, jamiyatdagi tengsizlik, kambag'allik va ishsizlik asosiy ijtimoiy xavf omillari hisoblanadi. Bunday xavf omillariga qarshi profilaktika tadbirlarini kuchaytirish – ta'lim va mehnat imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlar uchun ijobiy ijtimoiy muhit yaratish, turli xil qiyinchiliklarga duch kelgan oilalarni qo'llab-quvvatlash orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin.

Shu asosda WHO ijtimoiy profilaktikani davlat siyosati darajasida yo'lga qo'yishni, jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan toifalar bilan maqsadli ishlashni hamda profilaktik dasturlarni barcha darajadagi jamiyat tuzilmalariga integratsiya qilishni tavsiya etadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy profilaktikadagi rolini alohida ta'kidlash zarur. Targ'ibot-tashviqot ishlari orqali jinoyatchilikning salbiy oqibatlarini aholiga yetkazish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida televizion ko'rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalarining ta'siri katta. Bu orqali jinoiy xulq-atvor profilaktikasi yanada kuchayishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] ijtimoiy profilaktikani tashkil etishda bir qator muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Ushbu qaror orqali ijtimoiy muhitni yaxshilash, jinoyatchilikning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'rishga qaratilgan. Quyida mazkur Qaror asosida ijtimoiy profilaktikani tashkil etish bo'yicha ba'zi asosiy jihatlar ko'rib chiqiladi:

Mahallalarda ijtimoiy monitoring tizimini joriy etish:

mahallalarda ijtimoiy profilaktika faoliyatini samarali amalga oshirish uchun ijtimoiy muhitni va aholi orasidagi ijtimoiy holatni doimiy ravishda kuzatish va tahlil qilish zarur;

mahalla fuqarolarining ehtiyojlarini va muammolarini aniqlash, ular bilan aloqalarni mustahkamlash va profilaktika faoliyatini mahalliy darajada moslashtirish kerak.

Yoshlar bilan ishlash:

yoshlarning jinoyatchilikka qarshi kurashda faolligini oshirish, ularni ijtimoiy faollikka jalb qilish muhim ahamiyatga ega;

ijtimoiy muhitda yoshlar uchun xavfsiz va ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lom sharoitlar yaratish, ularga kasb-hunar, ta'lim, sport va madaniyat sohalarida imkoniyatlar taqdim etish orqali jinoyatchilikka qarshi turishlarini ta'minlash mumkin.

Huquqiy tarbiya va ma'rifat ishlari:

fuqarolarni huquqiy jihatdan targ'ib qilish, ularning huquqiy ongini oshirish, jinoyatlarning oldini olishda yuridik ma'lumotlarni kengaytirish kerak;

ijtimoiy profilaktika samarali bo'lishi uchun huquqiy tarbiya dasturlari va mahallalarda huquqiy maslahatlar tashkil qilish zarur.

Jinoyatchilikka olib keluvchi ijtimoiy omillarni kamaytirish:

iqtisodiy notenglik, ishsizlik va boshqa ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash lozim;

mahallalarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni o'z salohiyatlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratish lozim.

Mahalla fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash:

mahallalarda jinoyatni oldini olish uchun xavfsizlikni ta'minlash tizimini kuchaytirish, politsiya va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur;

mahallalarda xavfsizlik kameralarini o'rnatish, jamoat joylarida nazoratni kuchaytirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin.

Oila va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash:

ijtimoiy profilaktika tizimining samaradorligini oshirish uchun, oila va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash zarur;

oila muhitidagi salbiy omillarni bartaraf etish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va yoshlarni jamiyatga moslashtirish muhim.

Mahalla raislari va ijtimoiy faoliyatni boshqaruvchilar faoliyatini kuchaytirish:

mahalla raislari va ijtimoiy ishlarda faol bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularning ishini samarali tashkil etish, aholini profilaktik chora-tadbirlar haqida xabardor qilish.

Psixologik va ma'naviy yordam dasturlarini amalga oshirish:

jinoyatga oid salbiy xulq-atvorning oldini olish uchun psixologik yordam, oila va jamiyat a'zolariga ma'naviy va axloqiy maslahatlar berish, ular bilan ishlash zarur.

Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuvni qo'llash, aholi bilan

mustahkam aloqa o'rnatish, jinoyatchilikka olib keluvchi ijtimoiy omillarni bartaraf etish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan ilmiy va tahliliy o'rganishlarga ko'ra, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari va profilaktika inspektorlari tomonidan notinch oilalarni o'z vaqtida aniqlash, ularning manzilli ro'yxatlarini tuzish, oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan ishlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida 2025-yilning birinchi choragida oila-turmush doirasida 391 ta jinoyat sodir etilgan.

Mazkur jinoyatlarning 169 tasi oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, 60 tasi badanga yengil shikast yetkazish, 31 tasi badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, 41 tasi badanga og'ir shikast yetkazish va 37 tasi qasddan odam o'ldirish va boshqa jinoyatlariga to'g'ri kelgan [2; 17–18-b.].

Oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar orasida er-xotin, shu jumladan shar'iy nikoh yoki nikohsiz birga yashovchi shaxslar o'rtasida sodir etilishi salmog'i yuqori. Shuningdek, yaqin qarindoshlar o'rtasida ham oila-turmush doirasidagi jinoyatlar salmog'ining yuqoriligi bu borada kompleks chora-tadbirlarni tanqidiy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar hududlar kesimida o'rganilganda, Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent viloyatlarining salmog'i yuqori bo'lib, bu, asosan, aholi sonining ko'pligi va ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarining talab darajasida olib borilmayotganligi bilan izohlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy profilaktika jinoyatchilikning oldini olishda keng qamrovli, tizimli va muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Faqat huquqiy choralar bilan cheklanish yetarli emas, jinoyatchilikning sabablarini chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan ijtimoiy tadbirlar samarali natijalar beradi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy profilaktikani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash va bu yo'nalishda maxsus davlat dasturini qabul qilish.

2. Yoshlar o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish uchun maktab va OTMLarda majburiy ravishda profilaktik kurslar joriy etish.

3. Mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik tizimini shakllantirish va har bir institutning jinoyatchilikni oldini olishdagi mas'uliyatini belgilash.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda Internet va ijtimoiy tarmoqlarda profilaktik targ'ibotni kuchaytirish.

5. Ijtimoiy muammolarga yechim topish – ishsizlik, kambag'allik qisqartirish, ta'lim va tibbiyotga yetarlicha shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratish orqali jinoyatchilikni jilovlash.

6. Ijtimoiy psixologlar va pedagoglar ishtirokida profilaktik guruhlar tashkil etish va xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan individual ishlarni olib borish.

Bu takliflar ijtimoiy profilaktikaning samara-dorligini oshirish, jinoyatchilik darajasini pasaytirish va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim qadamlar bo'ladi. Ijtimoiy profilaktikaga ilmiy asosda yondashish orqali ushbu sohadagi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan nazariyalar ijtimoiy profilaktikaning samara-dorligini ta'minlashda turli omillarni va ahamiyatli aspektlarni hisobga olishni taqozo etadi. Har bir nazariya jinoyatchilikning oldini olish uchun ijtimoiy barqarorlik, tenglik jamoatchilik bilan hamkorlik qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu nazariyalar ijtimoiy profilaktikaning faol va samarali ishlashi uchun qonuniy va ijtimoiy omillar muvaffaqiyatli bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

Jinoyatchilikning oldini olish faqat jazo berish orqali emas, balki jinoyatga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali ham amalga oshirilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy profilaktika jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy profilaktikani amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Targ'ibot ishlari orqali jinoyatchilikning salbiy oqibatlarini aholiga

yetkazish, huquqiy ong va madaniyatni oshirishda televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va Internet platformalarining ta'siri katta. Bu esa jinoiy xulq-atvorning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-noyabrda 801-son qarori.
2. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025-yil 3 oyi bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 17–18-b.
3. Kriminologiya: Darslik / Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, I. Ismailov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 318 b.
4. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд // Пер. с фр. с сокр. / Под ред. В. А. Базарова. – М.: Мысль, 1994. – С. 399; Durkheim, E. The Division of Labour in Society, 1993.
5. Мертон Р. Социальная структура и аномия // Социология преступности (Современные буржуазные теории). – Москва, 1966. Перевод с французского Е.А. Самарской. Редактор перевода М.Н. Грецкий. Издательство «Прогресс». – С. 299–313; Merton, R. K. Social Structure and Anomie.
6. Wilson, J. Q., & Kelling, G. L. (1982). Broken Windows: The Police and Neighborhood Safety. The Atlantic Monthly, 249(3), 29–38.
7. Иншаков С. М. Зарубежная криминология. – М.: Издательская группа ИНФРА М–НОРМА, 1997. – С.47.
8. Woods, P. (1991). The Myth of the 'Culture of Deprivation'. British Journal of Sociology of Education, 12(2), 139–150. <https://doi.org/10.1080/0142569910120203>
9. World Health Organization (2010). Violence prevention: the evidence. A series of briefings on violence prevention. WHO Press. Geneva. <https://www.who.int/publications/i/item/9789241597821>.

